

Madatov Ilhom Yusup o'g'li,

SamDU Kattaqo'rg'on filiali dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD
e-mail: ilhommadatov7@gmail.com
tel: +998904693830

Abdimominova Gulshaydo

SamDU Kattaqo'rg'on filiali 2-kurs talabasi;
e-mail: abdimominovagulshaydo@gmail.com
tel: +998 770623306

INKLYUZIV TA'LIMNING RESPUBLIKAMIZGA KIRIB KELISHI, MAVJUD MUAMMOLARI VA DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning kirib kelishi, amaliyotga joriy etilishi, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan e'tibor, inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari, inklyuziv ta'limning imkoniyatlari, natijalari va mavjud muammolari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, tendensiya, maktab jamoasi, imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari, pedagogik jarayon, ijtimoiy muhit, ta'lim dasturi, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается внедрение инклюзивного образования, его реализация, ориентация на образование детей с ограниченными возможностями, цели и задачи инклюзивного образования, возможности, результаты и существующие проблемы инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, тренд, школьный коллектив, дети с ограниченными возможностями, цели и задачи инклюзивного образования, педагогический процесс, социальная среда, образовательная программа, педагогические технологии.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab ta'lim sohasiga jahon standartlari talablarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom tengdoshlari orasida bir xil sharoitda ta'lim olishini ta'minlash tendensiyasi ham shular jumlasidandir.

Ta'limda tenglik bo'lishi, barcha bolalar birgalikda ta'lim olishi inklyuziv ta'lim hisoblanadi va bugungi kunga kelib davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Inklyuziv ta'lim anomal- maxsus yordamga muhtoj bolalarni ham sog'lom tengdoshlari qatori ta'lim-tarbiya olishlari sanaladi.

Inklyuziv – (inklyuziya – inglizcha- uyg'unlashish) hamkorlikdagi ta'lim butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan.

Inklyuziv ta'limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishini qo'llaydi va yutuqqa erishishga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi.

Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregasion ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970- 1980- yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni sog'lom bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi. BMT tomonidan 1948- yilda qabul qilingan „ Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi” da „ Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi” ekanligi alohida e'tirof etilgan. Birinchi inklyuziv ta'lim muassasalari 1980-1990 yillarda Rossiyada paydo bo'ldi. 1991- yilda Moskvada terapevtik pedagogika markazi va ota-ona jamoat tashkiloti tashabbusi bilan „Ark” inklyuziv ta'limning birinchi maktabi ochildi. 1992- yilning kuzida „ maxsus tarbiyaga muhtojligi bo'lgan shaxslarni integratsiyalash” loyihasi yaratildi.

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim tizimi sifatida rivojlangan.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

Ushbu savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin:

- O'z imkoniyatini o'zi kashf etish imkonini beradi;
- Mustaqil harakatlanish birgalikda hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- Dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- O'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;
- O'zini tengqurlari barcha insonlar bilan bir xil his eta boshlaydi;
- Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi;
- Katta hayotga qadam qo'yishi osonlashadi.

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalariga keladigan bo'lsak,

„Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida “ gi nizomning 2- bobida ham qayd etib o'tilgan.

Inklyuziv ta'limning **maqsadi** – alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlasgiviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Maktablar alohida ta'lim olsih ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatishadi.

Inklyuziv ta'limning **vazifalari** quyidagilardan iborat:

Rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

Jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

Ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

Barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

O'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional irodaviy sohasi, emotsional irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida habardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik- pedagogik jihatdan qo'llab quvvatlash.

Xulosa: Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar maktablarda sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishi hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning ishtirokchilari Xalqaro ta'lim tizimi, Sog'liqni saqlash tizimi , oila , mahalla, maktab jamoasi, sinfdoshlarni qamrab oladi. Har bir ishtirokchi birgalikda maqsadli faoliyat olib borgandagina samarali natijalarga erishiladi.

Inklyuziv ta'limni joriy etilishi, amaliyotga tadbiiq etilishi uchun bir qancha muammolar va qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ta'lim muassasalarida maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun sharoitlar yaratmasdan ularni umumta'lim maktablarida o'qitib bo'lmaydi. Sharoitlar yo'qligi ularning ta'lim olishlariga to'siq hisoblanadi. Faqat sharoitlarni emas , balki ijtimoiy muhitni ham maxsus yordamga muhtoj bolalarni o'qitish uchun tayyorlash kerak bo'ladi. Ijtimoiy muhit inklyuziv ta'limga tayyor bo'lsagina maxsus ehtiyojli bolalar tengdoshlari qatori erkin ta'lim-tarbiya olishlari mumkin.

Inklyuziv ta'limni joriy etilishi imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi? degan savol tug'iladi. Ushbu savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin:

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan shaxslarni qashshoqlik iskanjasidan qutulishga imkon beradi;

Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim samaradorligini oshiradi;

Imkoniyati cheklangan bolalarni kamsitishlarini oldini oladi;

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashuviga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomahmudova R.Sh , P.F.N ,, inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekiston tajribalari)". Toshkent- 2010.

2. https://t.me/maxsus_pedagogika_315.
3. Madatov.I.Y “ Inklyuziv ta’lim “ O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va innovatsialar vazirligi Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali. Darslik.
4. „ Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi ” nizomi 2- bob.
5. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi „ Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.
<https://lex.uz/docs/-5013007>